IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

MISR FATVO UYI TOMONIDAN BERILGAN A'ZOLARNI KO'CHIRIB O'TKAZISHGA OID FATVO TAHLILI

Sodikov Jurabek Sobirboyevich

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO"

kafedrasi dotsenti, islomshunoslik fanlari bo'yicha PhD

Email: jurabeksodiq@gmail.com

Boboyorov Javoxir Jasurovich

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Islomshunoslik" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Email: javoxirboboyorovjasurovich@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20482829

Annotatsiya: Mazkur maqolada Misr fatvo uyining organ transplantatsiyasi masalasiga oid fatvosi o'rganiladi. Ularda inson hayotini saqlash, inson sha'nini himoya qilish va tibbiy zarurat tamoyillari asosida a'zolarni ko'chirib o'tkazish masalasining shar'iy hukmi bayon qilingan. Tadqiqot davomida tirik va vafot etgan shaxsdan a'zo olishning shartlari, bu borada savdo-tijoratning man etilishi hamda zamonaviy transplantologiyaning fiqhiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, fatvoda keltirilgan Qur'on oyatlari, hadislar va fiqhiy qoidalar asosida organ transplantatsiyasining joizlik mezonlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Oyat, hadis, fiqhiy qoida, organ transplantatsiyasi, Misr fatvo uyi, bioetika, shar'iy hukm, tibbiyot, inson sha'ni.

АНАЛИЗ ФЕТВЫ ОБ ТРАНСПЛАНТАЦИИ ОРГАНОВ, ВЫНЕСЕННОЙ ДАР АЛЬ-ИФТА ЕГИПТА

Аннотация: В данной статье рассматривается фетва Дар аль-Ифта Египта, посвящённая вопросам трансплантации органов. В ней на основе принципов сохранения человеческой жизни, защиты человеческого достоинства и медицинской необходимости изложено шариатское постановление относительно пересадки органов. В ходе исследования анализируются условия получения органов от живых и умерших доноров, запрет торгово-коммерческих операций в этой сфере, а также фикховые основы современной трансплантологии. Кроме того, на основе приведённых в фетве аятов Корана, хадисов и фикховых правил раскрываются критерии допустимости трансплантации органов.

Ключевые слова: аят, хадис, фикховое правило, трансплантация органов, Дар аль-Ифта Египта, биоэтика, шариатское постановление, медицина, человеческое достоинство.

ANALYSIS OF THE FATWA ON ORGAN TRANSPLANTATION ISSUED BY DAR AL-IFTA OF EGYPT

Abstract: This article examines the fatwa issued by Dar al-Ifta of Egypt on the issue of organ transplantation. It outlines the Sharia ruling on organ transplantation based on the principles of preserving human life, protecting human dignity, and medical necessity. The study analyzes the conditions for obtaining organs from both living and deceased persons, the

prohibition of commercial trade in this regard, and the fiqh-based foundations of modern transplantology. Furthermore, the criteria for the permissibility of organ transplantation are highlighted based on Qur'anic verses, hadiths, and fiqh principles cited in the fatwa.

Keywords: Qur'anic verse, hadith, fiqh principle, organ transplantation, Dar al-Ifta of Egypt, bioethics, Sharia ruling, medicine, human dignity.

Zamonaviy tibbiyot taraqqiyoti natijasida ilgari davolash imkoniyati cheklangan ko‘plab kasalliklarni davolash imkoniyati yuzaga keldi. Ana shunday tibbiy yutuqlardan biri organ transplantatsiyasi hisoblanadi. Ushbu usul orqali inson organizmida faoliyatini yo‘qotgan yoki jiddiy zarar ko‘rgan a’zo o‘rniga sog‘lom a’zo ko‘chirib o‘tkazilib, bemorning hayotini saqlab qolish yoki uning sog‘lig‘ini tiklash maqsad qilinadi[1].

Shu bilan birga, organ transplantatsiyasi masalasi faqat tibbiy yo‘nalish bilan cheklanib qolmay, diniy, axloqiy va fiqhiy jihatdan ham muhim bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan masalalardan hisoblanadi. Islom ta’limotida inson tanasi va uning hurmati alohida e’tibor ostiga olingani sababli zamonaviy fatvo markazlari ushbu masalani chuqur ilmiy va shar’iy asoslar bilan o‘rganishga harakat qilingan. Ana shunday nufuzli muassasalardan biri Misr fatvo uyi hisoblanadi.

Misr fatvo uyi Misr Arab Respublikasidagi eng qadimiy va rasmiy fatvo muassasalaridan biri bo‘lib, 1895-yilda tashkil etilgan[2]. Ushbu muassasaning tashkil etilishidan asosiy maqsad diniy masalalarda ishonchli shar’iy xulosalar berish, fatvo berish jarayonini tartibga solish hamda zamonaviy hayotda uchraydigan yangi masalalarga fiqhiy yechimlar ishlab chiqishdan iborat bo‘lgan.

Tashkil topganidan buyon Misr fatvo uyi davlat diniy tizimining muhim bo‘g‘inlaridan biri sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Muassasa Qur’on, sunnat, ijmo’, qiyos va fiqh metodologiyasi asosida diniy qarorlar ishlab chiqadi. Bugungi kunda esa uning faoliyati faqat ibodat va muomala masalalari bilan cheklanmay, tibbiyot, bioetika, iqtisodiyot, oilaviy munosabatlar va zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq masalalarni ham qamrab oladi[3].

Ayniqsa, organ transplantatsiyasi kabi zamonaviy tibbiy masalalar yuzasidan bergan fatvolari islom huquqi va zamonaviy ilm o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan Misr fatvo uyi organ transplantatsiyasi masalasini zamonaviy tibbiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib chiqib, 2003-yil 22-oktyabr sanasida 739-raqamli fatvo ostida ushbu masalaga shar’iy hukmlarni bayon qilgan. Mazkur fatvo Ali Jum’a Muhammad tomonidan taqdim etilgan.

Fatvoga ko‘ra, inson a’zolarini ko‘chirib o‘tkazish va transplantatsiya orqali davolanish, agar unda shar’iy va tibbiy shartlar mavjud bo‘lsa, joiz hisoblanadi. Fatvoda alohida ta’kidlanishicha, bu jarayon insonni tahqirlash, inson tanasini tijorat obyekti yoki sotiladigan “ehtiyot qism” sifatida ko‘rishdan mutlaqo yiroq bo‘lishi lozim. Aksincha, transplantatsiyaning maqsadi inson hayotini saqlab qolish va uning azobini yengillashtirishdan iborat bo‘lishi kerak.

---

[1] Organ transplantatsiyasi - protseduralar, tayyorgarlik, narx va tiklanish [Murojat sanasi: 20.05.2026]

[2] Xaydarov M.M. Zamonaviy fiqhiy masalalar / o‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Tafakkur, 2024. – B. 99.

[3] تاريخ زراعة الأعضاء... ثورة طبية غيرت مصير الإنسان - الدكتور محمد بن سعد القحطاني [Murojat sanasi: 24.02.2026]

Mazkur hukm Qur’oni karimdagi quyidagi oyat bilan asoslangan:

“Kim bir jonni tiriltirsa (saqlab qolsa), go‘yo barcha insonlarni tiriltirgandek bo‘ladi” (Moida: 32)[4].

Fatvoda insonning ulug‘ maqomi va uning yaratilishdagi sharafli o‘rni alohida ta’kidlanadi. Bunga quyidagi oyat dalil o‘laroq keltiriladi:

“Darhaqiqat, Biz Odam farzandlarini mukarram qildik…” (Isro: 70)[5].

Shu sababli islom inson hayotini asrashni eng muhim maqsadlardan biri deb biladi. Inson o‘z salomatligini saqlashi, kasalliklardan davolanish choralarini ko‘rishi va o‘zini halokatga olib boruvchi ishlardan uzoq bo‘lishi lozim. Bu mazmunga Qur’ondagi quyidagi oyatlar ham dalolat qiladi:

“O‘z qo‘llaringiz bilan o‘zingizni halokatga tashlamangiz” (Baqara surasi, 195: oyat)[6].

“O‘zlaringizni o‘ldirmang. Albatta, Alloh sizlarga rahm-shafqatlidir” (Niso surasi, 29: oyat)[7].

Shuningdek, fatvoda davolanishning shar’an ma’qullangan amallardan ekaniga dalil sifatida Usoma ibn Sharik rivoyat qilgan hadis ham keltiriladi. Unda Rasulullоh (s.a.v.): **“Davolaninglar. Chunki Alloh biror dardni tushirgan bo‘lsa, uning davosini ham tushirgan”**[8], **-** deganlar.

Misr fatvo uyining qarashiga ko‘ra, organ transplantatsiyasi ana shu davolanish vositalaridan biri hisoblanadi.

Fatvoda tirik insondan tirik insonga hamda vafot etgan shaxsdan tirik insonga a’zo ko‘chirish ma’lum shartlar asosida joiz deb topilgan. Biroq bunda asosiy qoida – donor va bemorning manfaatlarini muvozanatlash hamda zarar yetkazmaslik tamoyiliga rioya qilishdir.

Shuningdek, fatvoda mayyitning hurmati ham alohida himoya qilinadi. Chunki, Rasulullоh (s.a.v.): **“O‘likning suyagini sindirish xuddi tiriknikini sindirish kabidir”**[9], - deganlar.

Shunga qaramay, agar mayyitdan a’zo olish boshqa insonning hayotini saqlab qolishga xizmat qilsa va bu jarayon hurmat bilan amalga oshirilsa, bunday amaliyot joiz deb baholangan.

Fatvoga ko‘ra transplantatsiyaning joiz bo‘lishi uchun bir qator shartlar mavjud. Misr fatvo uyi ushbu shartlarni tirik insondan tirik insonga va vafot etgan insondan tirik insonga a’zo ko‘chirish holatlariga alohida ajratib bayon qilgan.

Tirik insondan tirik insonga a’zo ko‘chirish quyidagi shartlar asosida joiz deb topilgan:

Birinchi shart – ko‘chirishning nihoyatda zarur bo‘lishi. Ya’ni a’zo olinadigan bemorning holati doimiy ravishda yomonlashib borayotgan bo‘lishi va uni aniq halokatdan faqat boshqa insondan sog‘lom a’zo ko‘chirishgina qutqara olishi, ular o‘rtasida qarindoshlik darajasi ikkinchi darajagacha bo‘lishi. Agar zarurat bo‘lib, oldingi (yaqin) darajadagi qarindoshlardan olish

[4] Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshketnt: Munir, 2021. – B. 113.
[5] O‘sha manba. – B. 289.
[6] O‘sha manba. – B. 30.
[7] O‘sha manba. – B. 83.
[8] O`zbekiston musulmonlari idorasi [Murojat sanasi: 24.02.2026]
[9] الموسوعة الحديثية ـ شروح الأحاديث ـ كَسْرُ عظمِ الميّتِ ككسره حيًّا ـ رواية: عائشة أم المؤمنين ـ محدث: أبو نعيم ـ مصدر: حلية الأولياء [Murojat sanasi: 07.03.2026]

imkoni bo‘lmasa, to‘rtinchi darajagacha ham ruxsat beriladi. Buni esa ishonchli va malakali shifokor mutaxassislar baholaydi. Bu borada muhim shart shuki, a’zo beruvchi shaxs balog‘atga yetgan, aqli raso va o‘z ixtiyori bilan rozilik bergan bo‘lishi kerak.

Ikkinchi shart – bu ko‘chirish tibbiy jihatdan a’zo oluvchi uchun aniq foyda keltirishi kerak. Suningdek, agar kasallangan a’zo o‘zgartirilsa – unga yetadigan aniq zararlarning oldini olishi lozim. Bu holatda uni aniq o‘lim va halokatdan qutqaradigan boshqa vosita bo‘lmasligi kerak.

Uchinchi shart – a’zoni ko‘chirish a’zosi olingan insonga kulliy (umumiy) zarar yoki juz’iy (biror a’zosiga) zarar yetkazishiga olib bormasligi kerak. Uning hayotiga moddiy yoki ma’naviy zarar bo‘lmasligi kerak. Tibbiy jihatdan uning hozirgi holati va kelajakdagi hayotiga salbiy ta’sir qilmasligi lozim. Zero, a’zo ko‘chirib qo‘yilayotgan shaxsning manfaati shar’iy jihatdan a’zosi olingan shaxsning manfaatidan ustun emas. Biror zarar boshqaga zarar yetkazish bilan ketkazilmaydi. Chunki, hadisda: **“Zarar berish ham, zararlanish ham yo‘q”**, - deyiladi. Bu borada umid qilinayotgan manfaat va ehtimoli bor bo‘lgan juda oz zarar masalasida odatiy, urfiy va shar’iy jihatdan juda oz deb bilingan zararning a’zolarni ko‘chirib o‘tkazish joizligiga ta’siri va zarari yo‘q. Lekin, bu ilmiy tajribadan o‘tgan bo‘lish shart. Bunday oz zararni a’zosi olingan shaxs bemalol ko‘tara olishi hamda moddiy va ma’naviy jihatdan saqlana olishi mumkin bo‘lishi kerak. Buning oz yoki ko‘pligi, zarari katta bo‘lmasligini odil va tajribali tibbiyot olimlari belgilaydi.

To‘rtinchi shart – bu ko‘chirish mutlaqo hech qanday moddiy yoki ma’naviy evazsiz bo‘lishi kerak. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ham, bilvosita ham.

Beshinchi shart – ko‘chirishdan oldin tibbiy komissiya tomonidan ushbu qoidalardan xabardor ekanlik haqida yozma tasdiq berilishi kerak va bu hujjat operatsiyadan oldin har ikki tomon – a’zo beruvchi va a’zo oluvchiga taqdim etilishi lozim.

Bu komissiya – mutaxassislardan iborat bo‘lishi va kamida uch nafar ishonchli shifokordan tashkil topgan bo‘lishi kerak hamda ularning hech biri bu ko‘chirish jarayonidan manfaatdor bo‘lmasligi lozim.

Oltinchi shart – ko‘chirilayotgan a’zo hech qanday holatda nasablarning aralashib ketishiga sabab bo‘lmasligi shart. Ya’ni insonning nasli va biologik kelib chiqishiga ta’sir qiluvchi a’zolarni ko‘chirish joiz emas.

Shuningdek, Misr fatvo uyining fatvosida vafot etgan insondan tirik insonga a’zo ko‘chirish uchun ham alohida shartlar belgilangan. Ular quyidagilar:

Birinchi shart – a’zosi olinayotgan shaxsning o‘limi shar’iy jihatdan aniq tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Bu – hayotdan to‘liq ajralish, ya’ni barcha tana a’zolari faoliyati butunlay to‘xtab, qayta hayotga qaytish mutlaqo imkonsiz bo‘lgan to‘liq o‘limdir. Bu holatni o‘lim sodir bo‘lganini aniqlash vakolati berilgan, adolatli va malakali uch nafar mutaxassis tasdiqlashi kerak. Ularning xulosasi yozma shaklda bo‘lib, imzolari bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Shundan keyingina uni dafn etishga ruxsat beriladi.

Klinik o‘lim yoki “miya poyasi o‘limi” (yoki miya o‘limi) e’tiborga olinmaydi, chunki u shar’iy o‘lim hisoblanmaydi. Sababi – bu holatda tananing ayrim a’zolari hali tirik bo‘ladi. Bundan tashqari, tibbiyot mutaxassislari orasida ham uni to‘liq haqiqiy o‘lim deb hisoblash borasida ixtilof mavjud. Chunki, “yaqin (aniq) narsa shubha bilan yo‘qolmaydi”.

Agar tibbiy jihatdan a’zoni faqat to‘liq shar’iy o‘limdan keyin olish foydasiz, lekin miya o‘limidan keyin olish mumkin bo‘lsa, bunday ko‘chirish – harom hisoblanadi. Bu esa Alloh harom (mukarram) qilgan jonni nohaq o‘ldirishga teng hisoblanadi.

Ikkinchi shart – ko‘chirishning nihoyatda zarur bo‘lishi. Ya’ni a’zo oluvchi bemorning holati doimiy ravishda yomonlashib borayotgan bo‘lishi va tibbiy nuqtayi nazardan uni faqat boshqa tirik yoki o‘lik insondan sog‘lom a’zo ko‘chirishgina qutqara olishi hamda bu ko‘chirish bemor uchun o‘rnini bosadigan boshqa yo‘li bo‘lmagan zarur manfaatni ta’minlashi kerak.

Uchinchi shart – a’zosi olinayotgan marhum tirikligida bu ko‘chirishni vasiyat qilgan bo‘lishi kerak. U bu ishni aqli raso holda va hech qanday moddiy yoki ma’naviy majburlovsiz qilishi lozim hamda o‘zining ma’lum bir a’zosini vafotidan keyin boshqa insonga berishni aniq bilgan holda vasiyat qilgan bo‘lishi kerak.

Shuningdek, ko‘chirish inson sha’nini tahqirlashga olib kelmasligi kerak. Ya’ni vasiyat juda ko‘p a’zolarni olishni o‘z ichiga olib, inson tanasini bo‘sh holga keltirib qo‘ymasligi lozim. Chunki, bu Alloh taoloning quyidagi oyatida kelgan ulug‘lashga zid keladi: **“Darhaqiqat, Biz Odam farzandlarini mukarram qildik”** (Isro surasi, 70: oyat)[10].

To‘rtinchi shart – o‘likdan tirikka ko‘chirilgan a’zo hech qanday holatda nasablarning aralashib ketishiga sabab bo‘lmasligi kerak. Masalan, jinsiy a’zolar va boshqalar kabi. Bu holat tirikdan tirikka a’zo ko‘chirishdagi kabi bir xil qoida hisoblanadi.

Beshinchi shart – ko‘chirish davlat tomonidan tasdiqlangan va ruxsat berilgan ixtisoslashgan tibbiy markazda amalga oshirilishi kerak va bu jarayonda tomonlar o‘rtasida hech qanday o‘zaro moddiy to‘lov bo‘lmasligi kerak.

A’zolar ko‘chirib o‘tkazilishida boy va kambag‘al teng bo‘ladi. Tibbiy xizmat ko‘rsatishda ularni tenglashtiruvchi qoidalar belgilanishi kerak va ulardan biri boshqasidan faqat tibbiy zarurat sababigina ustun qo‘yilishi mumkin. Ya’ni bu ustunlik aniq zarar, o‘lim yoki hozirgi ayni halokatdan qutqarish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak[11].

Demak, yuqoridagi shartlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Misr fatvo uyining organ transplantatsiyasi haqidagi fatvosi zamonaviy tibbiyot va islom fiqhi o‘rtasidagi muvozanatli yondashuv namunalaridan biri hisoblanadi. Mazkur fatvoda organ transplantatsiyasi mutloq ravishda joiz yoki mutloq ravishda man etilgan amal sifatida emas, balki ma’lum shar’iy va tibbiy mezonlar asosida baholangan.

Fatvoning asosiy mohiyati inson hayotini saqlash, zararlarni bartaraf etish va inson sha’nini himoya qilish tamoyillariga tayanadi. Shu bilan birga, inson tanasining hurmati, donor manfaatlarini himoya qilish, organlar savdosining oldini olish hamda nasablarning saqlanishi kabi ustuvor masalalar qat’iy nazorat ostiga olingan.

Tahlildan ko‘rinadiki, Misr fatvo uyi transplantatsiyaga ruxsat berishda fiqhning umumiy qoidalaridan, xususan, zarurat holatida yengillik berilishi, zarar yetkazmaslik, manfaatni jalb qilish va inson hayotini muhofaza qilish kabi tamoyillarga tayangan.

Shuningdek, ushbu fatvo zamonaviy tibbiyot yutuqlarini inkor etmasdan, ularni shar’iy mezonlar bilan muvofiqlashtirishga intilgan. Natijada, organ transplantatsiyasi inson hayotini saqlashga xizmat qiladigan, biroq qat’iy tartib va cheklovlar bilan amalga oshiriladigan tibbiy

[10] Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshketnt: Munir, 2021. – B. 289.
[11] الحكم الشرعي في نقل الأعضاء - دار الإفتاء المصرية [Murojat sanasi: 07.04.2026]

amaliyot sifatida baholangan. Shu jihatdan Misr fatvo uyining mazkur fatvosi bugungi kunda transplantologiya va islom bioetikasi sohasidagi muhim fiqhiy yondashuvlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Munir, 2021. – 624 b.
2. Xaydarov Mirodil Mirvahidovich. Zamonaviy fiqhiy masalalar / o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2024. – 148 b.
3. Organ transplantatsiyasi - protseduralar, tayyorgarlik, narx va tiklanish
4. تاريخ زراعة الأعضاء... ثورة طبية غيرت مصير الإنسان - الدكتور محمد بن سعد القحطاني
5. O`zbekiston musulmonlari idorasi
6. فتاوي دار الإفتاء المصرية - دار الإفتاء المصرية
7. الموسوعة الحديثية - شروح الأحاديث - كَسْرُ عظمِ الميّتِ كَكسره حيًّا - رواية: عائشة أم المؤمنين - محدث: أبو نعيم - مصدر: حلية الأولياء